

O'zbekiston tarixi davlat muzeyiga tashrif

"Gidromelioratsiya" fakulteti Gidrologiya (daryo va suv omborlar gidrologiyasi) ta'lif yo'nalishi 1-bosqich 109 - guruh talabalari 2021 yilning 21 aprel kuni guruh murabbiysi G.Jumabayeva bilan birgalikda, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida O'zbekiston tarixi davlat muzeyiga tashrif buyurishdi. Bundan maqsad yoshlarimiz o'zbek xalqining o'rta asrlardagi buyuk madaniy merosi ham ekspozitsiyada o'z ifodasini topganligini, Temur va temuriylar davriga bag'ishlangan ekspozitsiyada Amir Temur sa'y-harakatlari natijasi o'laroq, fan va madaniyatning yuqori darajada rivojlanganligi haqida hikoya qiluvchi ko'plab eksponatlar bilan tanishtirishdir. Shu asnoda yosh avlodni, tariximizga, buyuk shaxslarga, ajdodlarimiz merosiga yuksak hurmat va e'tibor ruhida tarbiyalashdir.



**"G va G" kafedrasi assistenti G.Jumabayeva axboroti
TIQXMMI matbuot xizmati**